

дастурлари (PISA, TIMSS) талаблари. – Тошкент: Таълим сифатини баҳолаш миллий маркази, 2022. (Ўқувчиларнинг график маълумотлар билан ишлашда танқидий тафаккурини баҳолаш мезонлари).

10. Halpern D. F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – 5th Edition. – Routledge, 2014. (Танқидий фикрлашни ривожлантириш бўйича жаҳон тан олган фундаментал асар, таҳлилий машқлар қисми мавзуга мос).

Илмий мақолалар ва электрон ресурслар

11. Сайдалиев С. С. Чизмачилик дарсларида ўқувчиларнинг фазовий тасавури ва танқидий тафаккурини ривожлантириш омиллари. // «Педагогика» илмий-назарий журнали. – 2020. - №4.

12. Methods of Developing Critical Thinking in Engineering Graphics Classes. // International Journal of Formal Education. – 2022. (Чизмачилик дарсларида критик фикрлашни ривожлантиришга бағишланган халқаро илмий мақола).

13. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигининг расмий таълим портали: www.uzedu.uz (Миллий ўқув дастуридаги "4C" (критик фикрлаш) кўникмалари бўйича норматив хужжатлар учун).

SHUKRULLO ASARLARINING BADIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING TADQIQ ETILISHI

Oyzoda Abduholiqova Otabek qizi

Qo‘qon DU 1-bosqich magistranti

oyzodaxon100@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo ijodi o‘zining haqqoniyligi, inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib berishi va ijtimoiy salmog‘i bilan alohida ajralib turadi. Adibning

nafaqat she‘riy merosi, balki qatag‘on davri dahshatlarini aks ettirgan nasriy asarlari ham adabiyotshunosligimizda muhim tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Shukrullo asarlarining o‘rganilishi, unga berilgan adabiy baho va ijodkor mahoratini talqin qilishdagi yangicha yondashuvlar o‘zbek adabiyotshunosligi uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: asarlar tartibi, she‘riy to‘plam, she‘riy ertak, avtobiografik asar, tarjima, doston.

KIRISH

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo ijodi o‘zining haqqoniyligi, inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib berishi va ijtimoiy salmog‘i bilan alohida ajralib turadi. Adibning nafaqat she‘riy merosi, balki qatag‘on davri dahshatlarini aks ettirgan nasriy asarlari ham adabiyotshunosligimizda muhim tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shukrullo asarlarining o‘rganilishi, unga berilgan adabiy baho va ijodkor mahoratini talqin qilishdagi yangicha yondashuvlar o‘zbek adabiyotshunosligi uchun bir muncha dolzarblik kasb etishda davom etmoqda. Shukrullo ijodi bo‘yicha turli ko‘rinishda tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ular asosan biografik ma‘lumotlar, ayrim she‘rlar talqini yoki umumiy adabiy jarayon doirasidagi qisqacha tahlillar bilan cheklangan.

Ushbu maqolaning maqsadi - Shukrullo ijodini o‘zbek adabiyotshunosligida qay darajada o‘rganilganligini tahlil qilish, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish va tadqiq etilmagan jihatlarni aniqlashdan iborat.

METODLAR

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tarixiy-biografik hamda tipologik metodlardan foydalanildi. O‘zbek adabiyotshunosligida Shukrullo ijodiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar o‘rganildi. Xususan, N.Rahimjonov, Q.Yo‘ldosh, M.Qo‘shjonov, B.Nazarov, S.To‘laganova, G.Azamjonova, S.Kurbanova, F.Jo‘rayev, B.G‘ulomov, M.Qo‘chqorova, M.Bahriddinov, R.Shahobiddinova, M.Saidakbarova kabi o‘zbek olimlari asarlari, shuningdek

Sh.Karakash, J.Happel, E.Giray, O.So‘ylemez, O‘.F.Atesh, B.Turkyilmaz, N.Karago‘z, I.Dilek kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilindi.

Shukrullo asarlarining yilma-yil va janrlar kesimida tizimli o‘rganilishi shoirning badiiy tafakkuri bosqichlarini aniqroq anglash imkonini beradi. Shu maqsadda adib qalamiga mansub asarlar jadval ko‘rinishida tartibga solinib, ularning janri va yaratilgan vaqti ko‘rsatildi.

NATIJALAR

1. Shukrullo asarlar tizimi.

Adibning ko‘plab she‘riy to‘plamlari, dostonlari va nasriy asarlari uning ijod yo‘li izchil va sermahsul bo‘lganini ko‘rsatadi. Ijod namunalarini yilma-yil yoki janrlar kesimida tartiblab tahlil qilish shoirning badiiy tafakkuri qanday bosqichlardan o‘tganini aniqroq anglash imkonini beradi.

1-jadval. Shukrullo asarlari ro‘yxati

№	Asar nomi	Janri	Yaratilgan vaqti
1	“Baxt qonuni”	Birinchi she'ri	1939
2	“Chollar”	Doston	1948
3	“Birinchi daftar”	Birinchi she'riy to‘plami	1949
4	“Qalb qo‘shiqlari”	She'riy to‘plam	1949
5	“Kommunizm bo‘sag'asida”	Poyema	1949
6	“Rossiya”	Poyema	1958
7	“Hayot ilhomlari”	She'riy to‘plam	1959
8	“Umrim boricha”	She'riy to‘plam	1960
9	“Inson va yaxshilik”	She'riy to‘plam	1961

10	“Bahor sovg'asi”	She'riy to‘plam	1962
11	“Xatarli yo‘l”	Pesa	1962
12	“Ikki qoya”	Poyema	1964
13	“Tabassum o‘g‘rilari”	Pesa	1964
14	“Yulduzlar”	She'riy to‘plam	1964
15	“Inson-inson uchun”	She'riy to‘plam	1964
16	“Ahillik haqida”	She'riy ertak	1950–1960-yillar
17	“Umr haqida ertak”	Avtobiografik asar	1960
18	“Mardlik va vafo qissasi”	Doston	1970
19	“Inson”	She'riy turkum	60-yillar
20	“Mezon”	She'riy turkum	60-yillar
21	“Kun va tun”	She'riy turkum	60-yillar
22	“26-tongotari”	Doston	1966
23	“Dostonlar”	Doston	1970
24	“Otash va gul”	Doston	1972
25	“Zarralar”	She'riy to‘plam	1973
26	“Stixi i poemы”	Lirika	1975
27	“Ko‘ngil chirog'i (Nur)”	Doston	1975
28	“Suyanchiq”	She'riy to‘plam	1977
29	“Yashagim keladi”	She'riy to‘plam	1978
30	“To‘ydan keyin tomosha”	Pesa	1980
31	“O‘g‘rini qaroqchi urdi”	Pesa	1982
32	“Javohirlar sandig'I”	Esse	1983

33	“Asr bahsi”	Doston	1985
34	“Sening baxting”	She'riy to‘plam	1988
35	“Kafansiz ko‘milganlar”	Avtobiografik xotira-roman	1989
36	“Unsiz Faryod”	Pesa	1990
37	“Krik dush”	Pesalar to‘plami	1991
38	“Qasosli dunyo”	Publisistik maqolalar to‘plami	1994
39	“Janjal”	Pesa	1997
40	“Tirik ruhlar”	Roman-xronika	1999
41	“To‘kilgan dardlarim”	She'riy to‘plam	2001
42	“Og‘ir kunlar sevinchi”	Roman	2002
43	“Uchaver burgut”	She'riy to‘plam	2003
44	“Hasrat bog‘I”	Pesa	2004
45	“Shafaq”	She'riy to‘plam	2007
46	“Onalar tashvishi”	She'riy to‘plam	2007

Shukrullo ijodi bundan ancha keng hisoblanilib, yuzlab she‘rlar, bir nechta dostonlar, bolalar uchun ertaklar, publisistik asarlar, xotira va qamoq mavzusidagi asarlarni o‘z ichiga oladi. Uning mashhur asarlari quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: she'riy to‘plamlar, dostonlar, bolalar adabiyoti (she'riy ertaklar), xotira va avtobiografik ruhdagi asarlar, tarjimalar.

2. Unvon va mukofotlar.

2-jadval. Shukrullo olgan unvon va mukofotlari

№	Mukofot nomi	Yil
----------	---------------------	------------

1	“Toshkent, 26-tongotari” dostoni uchun Respublika davlat mukofoti	1970
2	Hamza nomidagi Respublika davlat mukofoti	1970
3	“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi” unvoni	1977
4	“O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni	1981
5	“Do‘stlik” ordeni	1994
6	Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti	1994
7	“El-yurt hurmati” ordeni	1999
8	“Turk dunyosida yilning adabiyot kishisi” unvoni	2017

3. Tarjimachilik faoliyati.

O‘zbek adabiyotining iste’dodli vakillaridan biri bo‘lgan Shukrullo nafaqat shoir va adib sifatida, balki tarjimonlik borasida ham milliy adabiyot rivojiga muhim hissa qo‘sha olgan ijodkorlardan biridir. Xususan, rus adabiyoti durdonalari — Shandor Petyofi, Taras Shevchenko, Qaysin Quliyev she’rlari; Aleksandr Tvardovskiyning "Vasiliy Tyorkin", Aleksandr Blokning "O‘n ikki" poyemasi; boshqird adabiyoti vakili Mustai Karimning "Qora suvlar" dostoni; qalmoq shoiri David Kugultunovning "Maobit daftari" she'riy to‘plamidan ayrim she'rlar; arman adabiyotidan Ovanes Tumanyanning "Anush" poyemasi va boshqa ko‘plab asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Qolaversa, Shukrullo asarlari ham rus, arab, nemis, turk, ozarbayjon, qoraqalpoq, qozoq va qirg‘iz tillariga tarjima qilingan. Bu tarjimalar shoir ijodining xalqaro miqyosdagi ahamiyatini ko‘rsatib, uning badiiy ijodi va ruhiy dunyosi boshqa madaniyatlar bilan ulashish imkonini yaratdi.

4. Nashr etilmagan asarlari.

Adibning hayoti va faoliyati davomida yozilgan, biroq ma'lum sabablar bilan nashr qilinmagan asarlari ham mavjud. 1940-yilda "Lo‘lilar", 1941-yilda Maksim Gorkiyning Volga bo‘ylab sayohati to‘g‘risida, 1943-yilda urush qahramonlari va xalqlar do‘stligiga bag‘ishlangan poyemalar yozilgan. Bundan tashqari, "Tundagi quyosh", "Ko‘milgan xotiralar" degan nomli nasriy asarlar hamda "Lenin-Stalin tundrada" nomli doston ham yozilgan bo‘lib, ayrim parchalari hali saqlanib qolgan.

MUHOKAMA

Shukrullo ijodini o‘rganish jarayonida bir qator o‘zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Ushbu tadqiqotlarga munosabat bildirish maqolaning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Masalan, adib qalamiga mansub “Kafansiz ko‘milganlar” romanini avtobiografik tarzda yozilgani va undagi surgun masalasini M.Saidakbarova o‘z maqolasida batafsil yoritib bergan. Ozod Sharafiddinov esa Shukrullo ijodiga to‘xtalib, uning hayot yo‘li va ijodiy shakllanish bosqichlarini tahlil qiladi. Olim shoirning biografiyasidagi murakkab tarixiy sharoitlar, xususan, qatag‘on davrining uning dunyoqarashiga ta'sirini alohida ta'kidlaydi:

“Shukrullo she'riyati insoniy qadr-qimmat, ruhiy bardoshlilik va hayot sinovlariga qarshi kurashning badiiy ifodasidir.”

Ushbu fikr shoir ijodining g‘oyaviy asosini ochib berishda muhim ilmiy xulosadir.

Naim Karimov Shukrulloning ayrim asarlarini, xususan uning qamoq mavzusiga bag‘ishlangan ijodini tahlil qilib, ularning tarixiy va hujjatli ahamiyatiga e'tibor qaratadi:

“Shukrullo asarlarida shaxsiy kechinma umumxalq dardiga aylanadi va bu holat uning ijodini badiiy hujjat darajasiga ko‘taradi.”

Bu qarash shoir ijodining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochishda muhimdir.

Baxtiyor Nazarov Shukrullo she'riyatining poetik xususiyatlarini o‘rganib, undagi shakl va mazmun uyg'unligiga alohida e'tibor qaratadi:

“Shoirning sodda va xalqona ifoda uslubi chuqur falsafiy mazmunni o‘zida mujassam etadi.”

Bu fikr Shukrullo ijodida uslub va mazmun birligi yuqori darajada ekanini tasdiqlaydi.

Abdug‘afur Rasulov o‘z ilmiy ishlarida Shukrullo asarlaridagi janr xususiyatlarini tahlil qilib, uning ijodida lirika, epika va publisistika elementlari uyg‘unlashganini qayd etadi:

“Shukrullo ijodida janrlararo sintez hodisasi kuchli bo‘lib, bu uning badiiy tafakkurining kengligini ko‘rsatadi.”

Yuqoridagi olimlar qarashlarini umumlashtirib aytish mumkinki, ularning barchasi Shukrullo ijodining turli jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, umumiy xulosada bir nuqtada - shoir ijodining chuqur g‘oyaviyligi va badiiy mukammalligini e‘tirof etishda birlashadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda janr, kompozisiya va uslubning o‘zaro aloqadorligi yetarlicha kompleks tahlil qilinmagan. Bu esa yangi ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyat qoldiradi.

XULOSA

Shukrullo ijodining o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi jarayoni tahlili quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

1. Shukrullo yarim asrdan ortiq ijodiy faoliyat davomida she‘riy to‘plamlar, dostonlar, dramalar, publisistik va nasriy asarlardan iborat keng miqyosli adabiy meros yaratgan.

2. Adibning tarjimachilik faoliyati o‘zbek va jahon adabiyotlari o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan; uning asarlari esa bir nechta xorijiy tillarga tarjima qilingan.

3. O‘zbek adabiyotshunosligida Shukrullo ijodiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, janr, kompozisiya va uslubning o‘zaro aloqadorligi kompleks tarzda yetarlicha o‘rganilmagan.

4. Shukrullo ijodini keng qamrovli va tizimli o‘rganish o‘zbek adabiyoti tarixi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1993.
4. Qo‘chqorova M. “Shukrullo hayoti va ijodining o‘zbek-turk adabiyotshunosligida o‘rganilishi”. O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, 6-son.
5. Qo‘shjonov M. Sarhisob (shoir, nosir, dramaturg). Shukrullo ijodining olmos qirralari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016.
6. Orhan So‘ylemez, O‘mer Faruk Atesh. Turk Dunyasinda Cheyrek Asirliq Edebi Tecrube: Milli Ruh ve Edebiyata Yansimasi. – Ankara: 2020.
7. inlibrary.uz
8. ziyonet.uz
9. www.kitob.uz

MUZEYLARDAGI ASOSIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: (FARG‘ONA VILOYATI MUZEYLARI MISOLIDA)

Raxmatullaeva Saodat Ibragimovna

Qo‘qon davlat universiteti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona viloyati muzeylarida arxeologik ashyolarni saqlash, restavratsiya qilish va namoyish etish sohasidagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2023-yilda e’tirof etilgan muzeylarning moddiy-texnik bazasi, harorat va namlik rejimiga rioya etilishi, ixtisoslashtirilgan restavratsiya maxsuslashtirilgan laboratoriyalarining yetishmasligi kabi bir qator dolzarb muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son Qarori doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning muzeylar faoliyati sohasi